

**INTERNET VA BOSMA GAZETALARNING O‘ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI VA FARQLI TOMONLARI
(KOREYS BOSMA VA INTERNET GAZETALARI MISOLIDA)**



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2025-27-73-75>

Sobirova Madina Baxramovna

O‘qituvchi – stajyor

ALFRAGANUS UNIVERSITY

Annotatsiya: Quyida koreys bosma va internet gazetalar misolida internet va bosma nashrlarning nazariy-ta’rifiy asoslari, ularning o‘ziga xos xususiyatlari va funksional farqlari ilmiy-tahliliy jihatdan o‘rganiladi. Ishda internet gazetalarining jamiyatdagi mavqei ortishi, maqola mavzusining auditoriya e’tiborini jalb qilishdagi roli, shuningdek, texnik, tarkibiy (kontent) va interaktiv xususiyatlari orqali ularni bosma gazetalaridan ajratib turuvchi asosiy omillar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: bosma gazeta, internet gazeta, interaktivlik, multimedia, adresat, adresant.

Zamonaviy globallashtirish sharoitida axborot almashinuvi jarayonlari jamiyat hayotining barcha sohalariga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivoji ommaviy axborot vositalarining shakli, mazmuni va funksional vazifalarida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Xususan, internetning keng ommalashuvi natijasida internet gazetalar paydo bo‘lib, ular an’anaviy bosma gazetalar bilan bir axborot makonida faoliyat yuritib boshladi. Mazkur tezisda koreys bosma va internet gazetalar misolida internet va bosma nashrlarning o‘ziga xos xususiyatlari hamda ularning farqli jihatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

Bosma gazetalar uzoq yillar davomida jamiyatda axborot tarqatishning asosiy manbai sifatida xizmat qilib kelgan. Ular siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotga oid muhim voqea-hodisalarni yoritishda muhim o‘rin egallagan. Bosma gazetalarining asosiy afzalligi sifatida axborotning nisbatan puxta tahrir qilinishi, tahliliy maqolalarning ustuvorligi hamda rasmiylik darajasining yuqoriligini ko‘rsatish mumkin. Biroq bosma nashrlar axborotni yetkazish tezligining pastligi, hajm va makon jihatidan cheklanganligi, shuningdek, auditoriya bilan biryoqlama muloqotga asoslanganligi bilan ajralib turadi.

Internet gazetalar esa axborotni real vaqt rejimida, tezkor va uzluksiz yetkazib berish imkoniyatiga ega bo‘lgan zamonaviy ommaviy axborot vositasi hisoblanadi.

Koreya Respublikasi ommaviy axborot makonida 조선닷컴/Chosun Dot com va 인터넷 한겨레/Internet Hankyoreh kabi gazeta kompaniyalari tomonidan boshqariladigan dot - com tipidagi barcha veb - saytlar, internetda 오마이뉴스/Ohmy News va 프레시안/Pressian kabi internet nashrlarining faoliyati internet gazetalarining jamiyatdagi mavqei tobora ortib borayotganini ko'rsatadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, bosma gazetalarini muntazam o'qiydiganlar ulushi yildan-yilga kamayib, internet gazetalarini mutolaa qiluvchilar soni esa sezilarli darajada oshib bormoqda ¹. Bu holat internet gazetalarining ijtimoiy fikr shakllanishidagi ta'sir kuchi ortayotganidan dalolat beradi.

Internet gazetalar texnik imkoniyatlari bilan bosma nashrlardan ustun bo'lib, axborotni matn bilan bir qatorda multimediyaga vositalari orqali taqdim etadi hamda giperhavolalar va real vaqt rejimidagi yangilanishlar orqali tezkorlikni ta'minlaydi. Kontent jihatidan internet gazetalar cheksiz hajmdagi axborotni elektron arxivda saqlash imkoniga ega bo'lib, materiallardan istalgan vaqtda qayta foydalanish imkonini yaratadi. Shuningdek, interaktivlik internet nashrlarda adresant va adresat o'rtasida ikki tomonlama muloqotni shakllantirib, auditoriyani axborot jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi.

Shuningdek, internet gazetalar jurnalistika amaliyotiga yangi yondashuvlarni olib kirdi. Yangiliklarni yetkazish shakli, maqola sarlavhalarining tuzilishi, materiallarning joylashtirilish uslubi internet muhitiga moslashdi. Internet gazetalarida maqola sarlavhasi o'quvchi e'tiborini jalb etuvchi eng muhim omil sifatida qoraladi. Ierarxik va vertikal tuzilishga ega bo'lgan dastlabki sahifa foydalanuvchini qiziqtirgan sarlavhani tanlashga undaydi.

Shu bilan birga, internet gazetalarining jamiyatdagi o'rni faqat axborot yetkazish bilan cheklanib qolmaydi. Ular ijtimoiy muhokama maydoni, jamoatchilik fikrini shakllantirish va turli ijtimoiy guruhlar o'rtasida muloqotni rivojlantirish vositasi sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, Janubiy Koreya ommaviy axborot makonida internet gazetalar fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini yoritish, dolzarb ijtimoiy masalalar yuzasidan ochiq bahs-munozaralarni tashkil etish orqali jamoatchilik faolligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu holat internet gazetalarining demokratik jarayonlardagi rolini kuchaytirayotganini ko'rsatadi.

¹ 이지희. "종이신문과 인터넷신문 이용패턴 비교." 국내석사학위논문 숙명여자대학교 대학원, - 서울, 2012. - 43 쪽

Bosma va internet gazetalar oʻrtasidagi farqlar lingvistik va stilistik jihatdan ham namoyon boʻladi. Bosma gazetalar matnlarida rasmiy-uslubiy birliklar, murakkab sintaktik tuzilmalar va tahliliy ifodalar koʻproq uchrasa, internet gazetalar tilida soddalik, ixchamlik va oʻquvchiga tez taʼsir etuvchi ifoda vositalari ustunlik qiladi. Bu esa internet muhitida axborotni tez qabul qilish ehtiyoji bilan bevosita bogʻliqdir. Sarlavhalarning qisqa, diqqatni tortuvchi va baʼzan emotsional tusda berilishi internet gazetalar uchun xos xususiyatlardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, internet gazetalarida vizual elementlarning ahamiyati ortib bormoqda. Foto, infografika va videomateriallar matn mazmunini toʻldirib, axborotni yanada tushunarli va taʼsirchan shaklda yetkazishga xizmat qiladi. Bu jihat bosma gazetalar bilan solishtirganda internet nashrlarning multimedaviy ustunligini yaqqol namoyon etadi. Multimediya vositalaridan foydalanish oʻquvchining eʼtiborini uzoqroq vaqt davomida saqlab qolish imkonini beradi.

Internet gazetalar faoliyatida iqtisodiy omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli reklama, obuna va homiylik kabi moliyaviy mexanizmlar internet nashrlarning mustaqil rivojlanishiga zamin yaratmoqda. Bosma gazetalar esa qogʻoz, chop etish va tarqatish xarajatlari sababli iqtisodiy bosimga koʻproq duch kelmoqda. Bu holat ham internet gazetalarining ustuvor mavqega ega boʻlishiga sabab boʻlayotgan omillardan biri sifatida baholanadi.

Xulosa qilib aytganda, internet gazetalar texnik, tarkibiy, interaktiv hamda lingvistik xususiyatlari orqali bosma gazetalarini axborot yetkazish tezligi, auditoriya bilan muloqot darajasi va taʼsir doirasi jihatidan ortda qoldirmoqda. Koreys bosma va internet gazetalarining tahlili zamonaviy axborot makonida internet nashrlarning yetakchi oʻrinni egallab borayotganini koʻrsatadi. Shu bilan birga, bosma gazetalar chuqur tahliliy materiallar va anʼanaviy jurnalistika qadriyatlarini saqlab qolgan holda ommaviy axborot vositalari tizimida oʻz oʻrnini saqlab kelmoqda.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. 이지희. 종이신문과 인터넷신문 이용패턴 비교. 국내석사학위논문. 숙명여자대학교 대학원. 서울, 2012.
2. 김익현. 인터넷의 매체특성이 인터넷 신문 기사에 미치는 영향. 연세대학교 언론홍보대학원. 서울, 2003.
3. Qosimova N. *Onlayn jurnalistika*. Darslik. – Toshkent, 2019.
4. Rashidova D., Muratova N. *Internet jurnalistikasi*. – Toshkent, 2007.
5. 김주태. 인터넷시대의 인쇄신문 기사와 제목의 변화. 동국대학교 언론정보대학원 석사학위논문. 서울, 2009.